

DARS JARAYONIDA AUDIO VA VIDEO VOSITALARDAN FOYDALANISH

Eshmurodova Zarinabonu Obidjonovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

4- bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada dars jarayonida audio va video vositalaridan foydalanish va uning samarasi, bugungi kunda qay darajada muhimligi, audio va video vositalarning dars samaradorligiga ta'siri haqida va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va tushunarli tashkil etish, ularning diqqatini jalb qilish va mavzuni chuqurroq o'zlashtirishga erishish imkoniyatlari haqida keltirilgan.

Kalit so'zlar: audio va video, zamonaviy, axborot texnologiyalar, qiziqarli, tushunarli tashkil etish, diqqatni jalb qilish.

Abstract

This article discusses the use of audio and video media in the teaching process and its effectiveness, its importance today, the impact of audio and video media on the effectiveness of the lesson, and the possibilities of organizing the learning process of students in an interesting and understandable way, attracting their attention and achieving a deeper understanding of the topic based on modern information technologies.

Keywords: audio and video, modern, information technologies, interesting, understandable organization, attracting attention.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarining yanada jadal rivojlanishi natijasida ta'lim jarayoniga yangi vositalar kirib kelmoqda. Shular qatorida audio va video vositalaridan foydalanish alohida o'rin tutadi. Bunday texnologiyalar o'quv jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning bilim darajasini oshirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning darsni mukammal o'zlashtirishi, zamonaviy texnologiya vositalari orqali bilimni yanada mustahkamlashi va unda foydalana olishi shuningdek, o'qituvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish juda ham muhimdir. Dars jarayonida biz audio va video vositalardan juda ham ko'p usullar orqali foydalanishimiz mumkin. Audio vositalarga turli xil ovoz yozuvlarini, nutqiy materiallarni, dialoglar va podkastlar kiradi. Audio vositalar ayniqsa til o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Masalan, o'qish fanini misol tariqasida olsak bo'ladi. Bu fanda darslikda berilgan hikoya yoki ertakni audio tarzda kirgizish qo'yish mumkin. Audio vositalar ta'lim jarayonida nafaqat tinglab tushunish, balki o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda ham muhim rol kasb etadi. O'quvchilar turli audio materiallarni tinglash orqali so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni, ohang va nutq tezligini o'zlashtiradilar. Bu ayniqsa chet tillarini o'rganishda ham juda samarali hisoblanadi. Shuningdek, audio vositalar yordamida o'quvchilarda mustaqil o'rganish ko'nikmalari ham shakllanadi. Ular darsdan tashqari vaqtda, uyda ham audio materiallarni tinglab, bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Bu esa uzluksiz ta'limni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Video vositalarning dars samaradorligida alohida o'rni bor. Video vositalar o'quvchilarga real hayotiy vaziyatlarni ko'rsatish, murakkab tushunchalarni vizual tarzda tushuntirish imkonini yaratib beradi. Masalan, ilmiy tajribalar, tarixiy voqealar yoki tabiiy jarayonlarni video orqali namoyish etish o'quvchilarning mavzuni yaxshiroq anglashiga, tushunishiga yordam beradi. O'quvchilarga tarixiy ma'lumotlar berishda, tushuntirishda virtual reallik orqali yoritib berish ular uchun yanada darsni qiziqarli, foydali qiladi. Bilimni tez va oson o'zlashtirishga sabab bo'ladi.

Audio va video orqali foydalanib o'tilgan darslar oddiy matn, hikoya, ertaklarga qaraganda tezroq tushuniladi. Murakkab keltirilgan mavzular sodda shaklga keladi,

tushunish yanada osonlashadi , xotirani yanada mustahkamlaydi.Dars jarayonida ko‘rish va eshitish birgalikda ishlaganda ma’lumot uzoq vaqt esda qoladi , takrorlashga ehtiyoj kamayadi . Vaqtdan unumli foydalanish , tejash mumkin . Darsning ba’zi jarayonlarini tushuntirish o‘rniga video orqali tez va aniq ko‘rsatish mumkin. Individual yondashuv imkonini beradi , ya’ni har bir o‘quvchi o‘quv materiallarini o‘z tezligida ko‘rib chiqishi mumkin. Kimdir tez o‘zlashtiradi, kimdir esa qayta ko‘rish orqali tushunadi. Murakkab va tushunish qiyin bo‘lgan jarayonlarni video orqali ko‘rsatish imkoniyatini beradi . Masalan, tabiatdagi jarayonlarni oladigan bo‘lsak , ilmiy tajribalar yoki tarixiy voqealarni animatsiya yoki hujjatli video orqali o‘quvchilarga aniq ko‘rsatish mumkin. Masofaviy ta’lim shakli uchun ham qulay .Audio va video darsliklar , materiallar onlayn darslarning asosini tashkil qiladi va masofadan turib samarali , tushunarli o‘qitishni mukammal ta’minlaydi. O‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshiradi . Qiziqarli videolar va eshittirishlar o‘quvchilarda o‘qishga nisbatan ijobiy munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi . Inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlaydi . Ya’ni imkoniyati cheklangan , nogironligi bo‘lgan bolalar , o‘quvchilar uchun ham juda samarali . Imkoniyati cheklangan bolalar darsda uyda o‘tirgan holda ham mavzu bo‘yicha kengroq esda qolarli ma’lumotlarga video orqali vizual ko‘rish orqali ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘ladi .O‘qituvchilarning audio va video vositalaridan to‘g‘ri va samarali foydalanishi o‘tiladigan fan va mavzuni yanada mustahkam tushunilishga sabab bo‘ladi . O‘tiladigan fanlar misolida yana oladigan bo‘lsak , tabiiy fan , chet tili , tarix fanlari uchun juda qiziq bo‘ladi . Tabiiy fanda o‘simliklarning o‘sishi rivojlanishini ko‘rsatish chet tilidan berilgan yangi so‘zlar ma’lumotlarni tallafuzini o‘rgatish , tarix fanidan yangi va o‘tilgan mavzuni qisqacha tushuntirish o‘qituvchi ovoz orqali qahramonlarga ovoz berishi yoki hikoya qilishi orqali tushuntirish videoda rasmlar orqali tushuntirish samarali hisoblanadi . O‘quvchilarni fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirib , kelajakdagi kasblarini tanlashda ham poydevor bo‘lishi mumkin . O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘ziga ham bu ma’suliyatni topshirishlari mumkin . Ularning o‘zlari ham o‘tiladigan mavzu bo‘yicha video yoki audio materiallar tayyorlashi ular uchun ham qiziq bo‘ladi . Bu orqali ijodiy fikrlash qobiliyatlari yanada oshadi hamda raqamli texnologiyalar bilan ishlash , multimedia bilan ishlash

ko'nikmasi shakllanadi va zamonaviy kasblarga hozirdan qiziqishi, moslashuvi oshadi. Inson visual ko'rgan narsalari miyada tez va uzoq eslab qolishi aytiladi, shu orqali video va audio orqali eshitish va ko'rish o'qish samaradorligini yanada oshiradi. Bunday ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilar uchun bir xil dars o'tish ya'ni bir xillikdan qochishga inovatsion ta'lim muhitini yaratishga sabab bo'ladi. Audio va video kabi axborot vositalari ta'lim jarayoniga shunchaki qo'shimcha emas, balki uning ajralmas va muhim tarkibiy qismiga aylanib kelmoqda. Ular darsni oddiy bilim berish jarayonidan chiqib, jonli, mazmunli va ilhomlantiruvchi muhitga aylantiradi. Bunday axborot vositalari orqali o'quvchi nafaqat eshitadi yoki ko'radi, balki his qiladi, tushunadi va ongli ravishda bilimni o'zlashtiradi. Buning natijasida o'quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol fikrlovchi, izlanayotgan va o'z ustida ishlaydigan shaxs sifatida shakllanadi. Zamonaviy ta'limni audio va video texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin, chunki ular bilim berish samaradorligini oshiribgina qolmay, balki kelajak avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi albatta. Kelajak ta'limi aynan texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, audio va video vositalar orqali tashkil etilgan darslar nafaqat bugungi kun ehtiyojiga, balki ertangi kun talablariga ham to'liq javob beradi. Shu sabab, ushbu vositalardan oqilona, maqsadga muvofiq va samarali foydalanish har bir o'qituvchining muhim vazifasiga aylanishi lozimdir. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'limda muvaffaqiyatga erishish uchun zamonaviy vositalardan oqilona foydalanish, ularni pedagogik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish va doimiy ravishda takomillashtirib borish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Multimedia vositalaridan foydalanish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida farmon joriy etildi. Farmon 4 bobdan iborat bo'lib o'z ichida bir necha yangilik va muammolarni qanday hal qilish va ularning yechimlarini, 2030-yilgacha qanday ta'lim tizimiga o'zgartirishlar kiritish va amal oshirish to'g'risidagi konsepsiyalar keltirilgan. Ushbu farmonda keltirilgan barcha vazifalar amalda ta'lim tizimida qo'llanishi shart deb belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/download/55396/35112/61574>
2. <https://digitalmediakompitentlik.wordpress.com/oqituvchilarning-pedagogik-psixologik-mediakompitentlini-rivojlantirish/>
3. <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/download/35498/22682/36681>
4. <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/download/938/1803>